

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

**ZAKARIYA TAMERNING SATIRIK HIKOYALARIDA HAYOT HAQIQATLARI:
“O’NINCHI KUN YO’LBARSLARI” HIKOYASI BADIY TAHLILI**

Kamoliddinova M.N

TDSHU Sharq xalqlari tillari va adabiyoti

fakulteti 2-kurs talabasi +998881421806

manoka5015@gmail.com

Ilmiy rahbar: o’qit. Shomurzayev Muhammad

Annotatsiya: Mazkur maqola Zakariya Tamerning "O'ninchi kun yo'lbarslari" hikoyasiga asoslangan holda, uning satirik hikoyalari orqali hayot haqiqatlarini qanday yoritganini tahlil qiladi. Asosiy e'tibor Tamerning arab adabiyotidagi o'rniغا, satirik uslubining o'ziga xosligiga va jamiyatdagi siyosiy-ijtimoiy muammolarni ochib berish yo'llariga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: hikoya, satira, ramziy ma'no, ijtimoiy tahlil, arab adabiyoti.

Аннотация: В данной статье анализируется, как Закария Тамер через свои сатирические рассказы, в частности рассказ "Тигры на десятый день", раскрывает жизненные истины. Основное внимание уделено его роли в арабской литературе, особенностям его сатирического стиля и способам разоблачения политических и социальных проблем в обществе.

Ключевые слова: рассказ, сатира, символическое значение, социальный анализ, арабская литература.

Annotation: This article analyzes Zakaria Tamer's portrayal of life's truths through his satirical short stories, focusing on his story "Tigers on the Tenth Day." The primary emphasis is on Tamer's role in Arabic literature, the uniqueness of his satirical style, and the ways he exposes political and social issues within society.

Keywords: short story, satire, symbolic meaning, social analysis, Arabic literature.

Zakariya Tamer zamonaviy arab adabiyotining yetakchi vakillaridan biri bo'lib, o'zining qisqa va keskin satirik hikoyalari bilan keng e'tirofga sazovor bo'ldi. Tamerning asarlari, xususan, arab dunyosidagi ijtimoiy-siyosiy muammolarni ochib berishga qaratilgan. 1931-yilda Suriya poytaxti Damashqda tug'ilgan adib, arab jamiyatidagi zulm, qashshoqlik,adolatsizlik va erkinlik uchun kurash kabi masalalarni o'z hikoyalariда chuqr yoritib berdi. Tamerning ijodi arab adabiyotida o'ziga xos o'rinni egallab, u arab xalqining og'ir taqdirini, siyosiy bosimlarni va jamiyatdagi muammolarni badiiy ifoda qilishda yetakchi ovozga aylangan.

Zakariya Tamer yashagan davr arab dunyosi uchun siyosiy va ijtimoiy larzalarga boy bo'ldi. XX asrning ikkinchi yarmida arab mamlakatlari mustamlakachilikdan qutulib, milliy ozodlik harakatlarini boshlab yuborgan bo'lsa-da, bu davrda siyosiy beqarorlik, harbiy to'ntarishlar va qattiq diktatura hukm surdi. Bunday sharoitda arab adabiyotida ham katta o'zgarishlar yuz berdi. An'anaviy mavzular o'mini milliy masalalar, erkinlik uchun kurash va inson huquqlari kabi dolzarb mavzular egalladi.

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Zakariya Tamer arab adabiyotida yangi ovoz olib kelgan yozuvchilardan biri bo‘lib, uning ijodida inson erkinligi vaadolat mavzusi markaziy o‘rin tutadi. Tamerning uslubi sodda, lekin mazmunli, qisqa, ammo chuqur. U o‘z hikoyalarida jamiyatdagi adolatsizliklarni, shafqatsizliklarni, insoniyatning kuch-quvvatini, erkinlik uchun kurashini va bu jarayonning murakkabligini ko‘rsatishga intildi.

Zakariya Tamerning “O’ninchи kun yo’lbarslari” hikoyasi o‘zining ramziy va satirik ma’nolari bilan arab adabiyotida alohida o‘rin tutadi. Ushbu asar inson erkinligining yo‘qolishi, jamiyat tomonidan bosimga olinishi va oxir-oqibatda zulmga qanday bo‘ysunishi jarayonini tasvirlaydi. Hikoya oddiy syujetga ega bo‘lishiga qaramay, undagi chuqur mazmun va ramzlar orqali o‘quvchiga juda ta’sirli fikrlar yetkaziladi.

Hikoya o‘z kuch-qudrati, erkinligi va o‘rmon ahli orasidagi mavqeyi bilan faxrlanadigan yo’lbarsning qafasga tushishi tasviri bilan boshlanadi. Avvaliga u panjaralar qurshoviga tushib qolganiga qaramay, tabiatiga xos ozodlik va erkinlikni saqlab qolishga urinadi. Murabbiy (hayvon o‘rgatuvchi) unga buyruq berishni boshlaydi, ammo yo’lbars bo‘ysunishdan bosh tortadi. Hatto murabbiyning unga nisbatan bildirayotgan kamsitishiga javoban: “*Men hech kimning quli emasman*”, deydi va natijada murabbiy bermoqchi bo‘lgan ovqatdan mahrum bo‘ladi. Bu sahna, o‘z navbatida, yo’lbarsning kuchli xarakterini va erkinlikka bo‘lgan intilishini namoyon qiladi. Va shu o‘rinda e’tibor qaratishimiz kerak bo‘lgan yana bir jihat mavjud. Murabbiy shogirdiga: “Agar hayvon o‘rgatuvchi bo‘lishni xohlasang, *raqibingning qorni sening asosiy nishoningdir*,” deya uqtiradi, ya’ni yo’lbarsni nazorat qilishning asosiy usulini tushuntiradi — ovqat orqali nazorat. Ushbu ramziy ifoda jamiyatdagi hokimiyat egalari insonlarni ehtiyojlarini orqali nazorat qilishini anglatadi. Yo’lbars och qolishga sabr qiladi, ammo oxir-oqibat ochlik uni bo‘ysunishga majbur qiladi. Murabbiyning “*Mag'rur bosh och qorinni to‘ydira olmaydi*” degan so’zlari bu jarayonni aniq ifodalaydi. Bu sahna insonning o‘z ehtiyojlarini va yashash uchun zaruratlar oldida qanday ojiz qolishini ifodalaydi.

Yo’lbarsning murabbiy buyruqlariga bo‘ysunib, avval mushuk kabi miyovlashga, keyin esa eshakdek hangrashga majbur bo‘lishi hikoyaning eng ta’sirli va ramziy ma’noli sahnalaridan biridir. Yo’lbars o‘zining avvalgi tabiatidan tamomila ajralib, faqat murabbiyning xohishiga ko‘ra harakat qiladi. Bu o‘zligini yo‘qotish va o‘z qadriyatlaridan voz kechish jarayonining eng yuksak nuqtasidir. Inson o‘z printsiplari va ishonchlaridan voz kechib, boshqalarning xohish-istiklariga moslashganida, u o‘z tabiiy kuchi va erkinligini yo‘qotadi. Yo’lbarsning o‘zi qachonlardir hurmat qilgan kuch va shon-shuuratdan voz kechishi insonning ijtimoiy bosimlar oldida qanchalik mo‘rt ekanligini ko‘rsatadi.

Shu tariqa yettinchi kun kelgach, murabbiy nutq so‘zlaydi va yo’lbarsdan unga qarsak chalishni talab qiladi. Yo’lbars murabbiyning so‘zlarini tushunmasa ham, och qolmaslik uchun qarsak chalaveradi. Ammo murabbiy undagi ikkiyuzlamachilikni qoralab ovqat bermaydi. Ya’ni o‘zi soxtakorlikni talab qilib, o‘zi bu illatni tanqid qiladi!

To‘qqizinchi kuni esa yo’lbarsga go‘sht o‘rniga pichan beriladi. Bu o‘zgarish yo’lbarsni o‘z tabiiy ehtiyojlaridan butunlay mahrum qilish ramzidir. Yo’lbars dastlab pichandan jirkansa-da, oxir-oqibat ochlik sabab pichanga ham moslashadi. Bu sahna insonning tabiiy istaklari va ehtiyojlarini qanday qilib majburlikda o‘zgartirilishi va boshqarilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Yo’lbarsning pichanga moslashishi insonning jamiyatdagi cheklov larga moslashishini va o‘z tabiiy instinktlaridan voz kechishini ifodalaydi.

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

O'ninchi kuni hikoya o'z yakuniga yetadi, aniqroq qilib aytganda, asardagi ramziy ma'no "fosh etiladi" : "...yo'lbars fuqaro bo'ldi, uning qafasi esa shahar bo'ldi". Shu yerda biz muallifning asardan ko'zlagan maqsadini tushungandek bo'lamiz. Hikoyadagi murabbiy va yo'lbars o'rtaisdagi munosabat aslida jamiyatdagi hukmronlik va zulmning ramzi sifatida xizmat qiladi. Hayvon o'rgatuvchining yo'lbarsni boshqarishi, uning kuchini zaiflashtirishi va oxir-oqibatda yo'lbarsning qafasda yashashni tabiiy hol sifatida qabul qilishi jamiyatdagi kuch va boshqaruvning qanday ishlashini ko'rsatadi. Yo'lbarsning o'rmon haqidagi xotiralari va o'ziga majburlab o'rgatilgan qoidalar o'rtaisdagi ichki kurashi esa, insonning o'zligini saqlab qolish yo'lidagi kurashini ifodalaydi. Biroq bu kurashning qanday yakun topgani siz-u bizga ma'lum. Zakariya Tamerning ushbu hikoyasi insonlarni o'z erkinligi va huquqlari uchun kurashishga undaydi, bo'y sunishning shafqatsiz oqibatlarini ochib beradi. Zero, jamiyatningadolatsiz qonunlariga ham ko'r-ko'rona ergashish har bir fuqaroni "o'ninchi kun yo'lbarsi"ga aylantirib qo'yishi shubhasizdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Tamerning "O'ninchi kun yo'lbarslari" hikoyasi inson erkinligi,adolat va jamiyatdagi zulm mavzularini chuqur tahlil qilib, o'quvchilarga insoniyatning murakkab taqdirini tushunish imkoniyatini beradi. Bu hikoya o'zining qisqa, lekin kuchli ifodalar bilan o'quvchini chuqurroq tafakkur qilishga undaydi. Zakariya Tamerning ijodi nafaqat arab adabiyoti, balki jahon adabiyotini ham sezilarli darajada boyitgan va uning asarlari xalqning ruhiyatini aks ettiruvchi asarlar sifatida abadiy yashaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.** All In One Boat. "Tigers on the Tenth Day — Fabled Syria".
- 2.** ArabLit & ArabLit Quarterly. "Zakaria Tamer, Practicing 'The Most Difficult Form of Literary Expression'" . <https://arablit.org>
- 3.** Summer Reading World Lit. (2021). "Tigers on the 10th Day" analysis.
- 4.** The Reading Life. "Tigers on the Tenth Day" by Zakaria Tamer.